

Oriental Journal of Education



THE FORM OF LOCAL GOVERNMENT IN KARAKALPAKS AND ITS REFLECTION IN SOURCES

Sohiba Boysarieva

Master student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Keywords: Karakalpak, local government, biy, yuzboshi, deputy, yasavulbashi, Khiva state archive, history of Karakalpak.

Received: 08.10.24

Accepted: 10.10.24

Published: 12.10.24

Abstract: This article examines the system of local administration in Karakalpak society in the 19th century and its reflection in the sources. In particular, the role of officials such as biy, yuzbashi, naib and yasavulbashi in managing Karakalpak society and their duties are analyzed. Also, the changes in this system under the rule of the khanate, based on the sources in the Khiva state archive, are related to the activities of the Karakalpak society in military and administrative matters. The article will be interesting for readers interested in the political and social history of the Karakalpak people.

QORAQALPOQLARDA MAHALLIY BOSHQARUV SHAKLI VA MANBALARDA AKS ETISHI

Sohiba Boysariyeva

Magistr

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Qoraqalpoq, mahalliy boshqaruv, biy, yuzboshi, noib, yasavulboshi, Xiva davlat arxivi, qoraqalpoq tarixi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrda Qoraqalpoq jamiyatida mahalliy boshqaruv tizimi va uning manbalarda aks etishi oʻrganiladi. Jumladan, qoraqalpoq jamiyatini boshqarishda biy, yuzboshi, noib va yasavulboshi kabi amaldorlarning oʻrni va ularning vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, qoraqalpoq jamiyatida harbiy va maʼmuriy masalalardagi faoliyatlariga oid Xiva davlat arxividagi manbalarga asoslangan holda, ushbu tizimning xonlik hukmronligi ostidagi oʻzgarishlari yoritiladi. Maqola qoraqalpoq xalqining siyosiy va ijtimoiy

tarixiga qiziqish bildirgan o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.

ФОРМА МЕСТНОГО САМОУПРАВЛЕНИЯ У КАРАКАЛПАКОВ И ЕЕ ОТРАЖЕНИЕ В ИСТОЧНИКАХ

Сохиба Бойсариева

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Каракалпакия, местное самоуправление, депутат, государственный архив, Каракалпакии.

бий, юзбоши, Хивинский архив, история

Аннотация: В данной статье рассматривается система местного управления в каракалпакском обществе XIX века и ее отражение в источниках. В частности, анализируется роль таких должностных лиц, как бии, юзбаши, наиб и ясавулбаши, в управлении каракалпакским обществом и их обязанности. Также изменения этой системы под властью ханства, исходя из источников Хивинского государственного архива, касались деятельности каракалпакского общества в военном и административном деле. Статья будет интересна читателям, интересующимся политической и социальной историей каракалпакского народа.

Qoraqalpoq jamoalarini idora etishda yuzboshining roli ham katta bo'lgan. Ular 1873-yilgacha biylar kabi vazifalarni bajargan va hurmatga sazovor bo'lgan. Ularning qo'l ostidagi navkarlar soni biylar qo'l ostidagi navkaridan qolishmas edi.

Xiva davlat arxivida qoraqalpoq biy, yuzboshi, otaliq va beklarbegi qarashli navkarlarning ro'yxati, o'zbek, turkman navkarlarining ro'yxati qatorida 5,26,30,57,59 kabi daftarlarida berilgan.

Ularda eng oldingisi 1824-yilga eng keyingisi 1872-yilga doir. 5,57,59 daftarlarda o'sha davrdagi qoraqalpoq amaldorlari va ularning navkarlarining ro'yxati keltirilgan. 57,59 daftarlarda ro'yxatda berilgan qoraqalpoq navkarlari Rahimqul to'raning 1824-1825 va 1830-1831-yillari Xurosonga va boshqa yerlarga qilgan urush safariga qatnashgan navkarlar ro'yxatidir. 1

Xiva davlat arxivi shu Qoraqalpoq yuzboshi va amaldorlarga qarashli navkarlar to'g'risida 26 (7,64), 30 (7,68)- daftarlarida ham ma'lumotlar bo'lib, ulardan xarakterlisi, 30-nomerdagi hujjatdir. Unda qoraqalpoqlarning har bir urug' — qabilasiga mansub navkarlar va ularning yuzboshi boshliqlari ayrim-ayrim ko'rsatilgan.

1873-yildan keyin ham qoraqalpoqlarda yuzboshilar bo'lgan. Lekin navkarlar 20 dan oshmagan. Navkarlar esa politsiya vazifasini o'tagani uchun soqchi deb atalgan.

1902-yili Jumonoy hokimligida (hokimi Abdurahimboy) Saydali yuzboshining qo‘l ostida 19 navkar bor edi. Undan boshqa Ollobergan biy yuzboshi Tohir yuzboshi, Qo‘chqor biy yuzboshi, Sherjon yuzboshilarning 7 nafardan navkari bo‘lgan.

Qoraqalpoqlarni idora etishda, ayniqsa, 1855-yildan boshlab yasavulboshilar katta rol o‘ynagan. Yasovulboshilar o‘zbeklardan tayinlanar, urush paytida necha minglarcha navkarga sarkardalik qilar, ularni xon Farmoniga muvofiq urushga olib kirar edilar. Tinchlik davrida esa xonning turli topshiriqlarini bajarganlar. Qoraqalpoqlarning ma‘muriy ishlarida dastlab Mahmud yasavulboshi, 1873-yildan so‘ng esa Yunus yasavulboshilar ishtirok etganlar. Arxiv materiallari qoraqalpoqlar orasida noib, mahram, mirob, darg‘a, chuhro og‘asi, qozi, rais kabi amoldorlar, og‘o, bobo, bahodir-bek kabi faxriy unvonlar bo‘lgani, u amaldagi kishilar qoraqalpoqning ma‘muriy ishlarida katta o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

XIX asrning II yarmida qoraqalpoqning beshsori Xitoy urug‘idan Bekmuhammad, Shermuhammad noib, quldovli qabilasidan Sherjon kabi noiblar yetishib chiqqan. Qo‘ng‘irot qoraqalpoqlarining Xudaybergan utob, Erjan, Jonibek, Eshim Abdusamat, Dusum, Janak, Arna kabi miroblari. Doymon, Elmirza, Qoymoq, Xo‘ja, Nazar kabi mahramlari: Turum, Xo‘janazar kabi darg‘alari, Abdusattar ohun bilan Erkaboy, Oranboy, Murtazo kabi raislari, Ermuhammad nomli chuhra og‘asi bo‘lgan.

O‘n to‘rt urug‘ qoraqalpoqlarida Turduq, Berdi, Xuroz, Mullo Muhammad Karim, Tilob kabi miroblari, Jiyan Muhammad, Ollobergan, Bekmuhammad, Alibek, O‘nboy, Nurmuhammad, O‘tagan, Xolmuhammad, Qulmurod, Abdukarim, Pirnazar kabi mahramlar: Rajab, Erman kabi darg‘alari: Muhammad Sharif, Erjan, Rajab kabi raislari bo‘lgan. Qoraqalpoq noiblari Amudaryoning o‘ng tomonidagi birdan-bir ma‘muriy markaz hisoblangan. Chimboyda turib o‘z hokimlarining ko‘rsatmasi bilan uning topshiriqlarini amalga oshirar edi.

Ya‘ni noib qoraqalpoqlarni boshqarishda o‘sha hokimlarning yordamchisi hisoblangan. Noiblarning ham o‘z ko‘rangini bo‘lgan. Miroblar qazuv masalalarida yetakchi rahbar sanalgan, darzalar Amudaryo va o‘ning irmoqlaridagi guzarlar, umuman kema ishlarini boshqargan.

Raislar bozor tartibi, diniy marosimlarning aniq bajarilishi ustidan nazorat olib borish kabi din shariat qonun qoidalarini normal olib borish xizmatini bajargan.

Og‘o, bob, bahodir beklar Faxriy unvon bo‘lib, qoraqalpoq amaldorlari nomidan oldin yoki keyin kelib, beklarbegi og‘a, otalig‘ og‘a, noib og‘a, biy og‘a, og‘abiy, biybobo kabi qushilib aytilar edi.

Qoraqalpoq urug‘ oqsoqollari amaldorlarining bolalari bek nomi bilan atalgan. Bahodirlar, beklar urush paytlarida katta hurmatga amaldorga oldin beklar orasidan tayinlanar edi. Yana shuni qayd qilish lozimki, yuqoridagi amaldorlarning hammasini xonning o‘zi tayinlar edi.

Qoraqalpoqlarning ma‘muriyatida ruhoniylar: qozi, Rais, shayx, eshon, imom, oxun, mutavali mahmudlar ko‘zga ko‘rinarli o‘rin tutgan. Bu ruhoniylar ham xonning roziligi bilan tayinlanardi. Aholi

yashaydigan tumanlar ular o'rtasida taqsimlangan bo'lib, o'ziga ajratilgan joyda xon hokimiyat manfaati uchun xizmat qilar edi.

Jumladan, 93 daftardagi Chimboy mavzeyining uchdan bir duoguyiligini Xo'jaylili Mullo Sherjonga berilsa deb yozgan iltimosi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu dunyoviy ruhoniylar tabaqasi doimo xon va feodal ekspluatatorlar sinfi feodal patriarxallar namoyandalarini himoya qilib, mehnatkash xalq ustidan hukmronlik etgan.

Qoraqalpoqlarning sud ishlarini boshqaradigan qozilari xon tomonidan o'zbeklardan tayinlanar edi. Mayda-chuyda da'volarni biylar, otaliq, beklarbegilar qolaversa raislar hal etgan. Asoslik da'volarni xon tomonidan belgilangan qozikalon (u Chimboyda edi) hal qilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan qoraqalpoq amaldorlari ommaviy masalalarni o'zaro kengashib hal etar, xon yoki xon amaldorlariga (qushbegi, devonbegi, mehtar kabilarga) ariza, shikoyat, iltimos, axborot bildirish — xabardor etish mazmunidagi xat yoki o'z vakillarini yuborar edi. Unday xatlarda beklarbegi, otaliq, biy, mahramlar va ba'zan yasavulboshi qozilarning ham muhri bosilar edi.

Qoraqalpoq amaldorlarining muhrlari har xil shaklda bo'lib, muhrda shu shaxsning, otasining nomi, amali va shu amalga tayinlangan-yili hijriy hisobida yozilgan.

- Beklarbegi Qobil 1279.
- Xudoynazar beklarbegi 1282
- Bekmuhammad noib 1287 Otaliq Ernazar ibn Qobil
- O'roz Muhammad otaliq Davlatnazar otaliq Odil otaliq 1280
- Sarim otaliq 1280 Orzu otaliq
- Orzu Muhammad otaliq Chil bahodir.
- Xudaynazar biy Davlatnazar biy, 1274 Adil biy
- Bekmuhammad biy 1270
- Davlatyor biy 1270
- Pirim biy 1274
- Mullo boy Muhammad biy 1273 Ermuhammad biy 1272
- Rajab biy 1272 Mullo Turum biy Bekpulat biy 1270 Dustmuhammad biy To'raniyoz biy
- Navbatullo biy 1281 Muhammad Sodiq biy 1272 Xudoybersun biy Davlatboy biy

Shunday qilib, qoraqalpoqlar patriarxal-urug'chilikning sarqiti "eski urug'chilik" tashkilotlariga muvofiq ravishda idora qilingan. "Urug'" ning eng boy nufuzli namoyondalari beklarbegi, otaliq biy, katxudo, yuzboshi, mahramlar hisoblangan. Biroq ular uchun xam xonning rasmiy tasdig'i bo'lishi kerak edi. Qoraqalpoqlarda biydan boshqa amallarning joriy qilinishi biylarning ta'sirini kamaytirdi. Ikkinchi tomondan, kelajakda ularning siyosatini amalga oshiruvchi amaldorlarning xon tomonidan tayinlanishi qoraqalpoqlar ustidan Xiva hokimiyati hukmronligining o'sishi ta'minlandi», deb yozadi.

Xon albatta, arzimagan xizmatlari uchun biylik amalini beravergan. Xiva tarixchilari va arxiv materiallari Qobilning beklarbegi, Ernazarning otaliq amaliga tayinlashining sababi haqidagi rivoyatlarning asossizligini ko'rsatdi. Terstamg'ali Qobil biy bilan kenagas Ernazar biy xalqini xonga itoatda saqlash yo'lida juda ko'p xizmat qildilar. Ular qoraqalpoq qo'zg'olonchilarini bostirishda ishtirok etib bir necha bor inyom olganlar.

Kenagas Ernazar biy 1855-1856-yildagi quldovli Ernazar biy (Olako'z) boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirishda qoraqalpoq navkarlariga rahbarlik qildi.

Xon vakili sifatida quldovli Ernazarni xonga bosh egishga da'vat etdi va boshqa shu kabi xizmatlarni bajaradi. Ernazar biyning turkmanlar qo'zg'olonini bostirish uchun bo'lgan janglarda Xurosonga qarshi bosqinchilik urushlarida ishtirok etganiga shubhamiz yo'q. Anna shu xizmatlari tufayli xon Ernazarni otaliq amaliga tayinlagan edi.

Qobil biyning xizmati undan ham ko'pdir. 1856-yil qoraqalpoqlar qo'zg'oloni bostirilgandan so'ng Qobil biyga 20, Ernazar biyga 50 tilla, keyin beklarbegi vazifasiga tayinlangan mang'it Sohibnazarga 50, otaliqqa tayinlangan Chiruvchi Odil biyga 25 tilla vazifa puli bergan.

Umuman, xonlar o'ziga madad, sadoqat istab, qoraqalpoq mehnatkashlarini doimiy itoatda tutish maqsadida, qoraqalpoq amaldorlariga vazifa — keyinroq biy puli deb atalgan maoshdan tashqari in'omlar uchun turli: yer, g'alla, pul, kamar, pichoq, ot, egar kabi narsalar berib o'zlariga qaratib olganlar.

Xonlikdagi amaldorlarga maosh va navkarlarga navkar puli berish Muhammad Aminxon davrida (1845-1855) rasmiy ravishda boshlangan. U haqda Bayoniy: «1265 (1848-1849)-yili Muhammad Amin xon mehtarga navkarlarning ro'yxatini tuzib, ularga pul berish to'g'risida farmon qildi. Beklar to'ralar va sarkardalarga ham pul berishni amr qildi deb yozadi.

Xiva davlat arxivi 49,60,61,62,63,64,76,89. A- 422 daftarlarida xonlik amaldorlarining nomlari, ularning mansablari va amaliga yarasha olgan maoshlari ko'rsatilgan juda muhim materiallar bor.

Ulardan 49,62,76,A — 422 daftarlarda qoraqalpoq amaldorlarga berilgan maosh yozilgan. Qoraqalpoq amaldorlariga har-yili maosh tariqasida pul berish xonlikda 1873-yildan keyin ham davom ettirilgan. 1910-yili qoraqalpoq va qozoqlarning har xo'jaligidan 22 tangadan 19196 tilla soliq olingan. Shundan ularning biylariga biy puli uchun 872 tilla 4 tanga, olti beklarbegiga 3000 tilla (50 tilladan) qoraqalpoq va qozoqlarning 55 navkarlariga 22 tilladan 1210 tilla navkar puli berilgan. To'plangan soliq summasidan 16813 tilla qolgan. Bu fakt 1873-yildan oldin va keyin ham qoraqalpoq amaldorlarining o'zi mehnatkash xalqidan olinadigan soliqdan katta manfaatdorligi, shuning uchun soliqlarni yig'ib topshirish ishida har qanday jinoyatlardan qaytmasligini ko'rsatadi.

1873-yildan oldin qoraqalpoqlar xonlikka 2000 navkar berish majburiyati yuklanganini qayd qilib o'tgan edik. qoraqalpoq navkarlarining ahvoli turkman navkarlarinikiga qaraganda og'irroq edi.

Ularga turkman navkarlariga berilgan imtiyozlar, jumladan, xon tomonidan ekin maydonlari ajratib berilgan.

Ularga faqat urushga yurish oldidan, ba'zan keyin besh tilladan navkar — puli berilar edi. Arxiv hujjatlari fikrimizni tasdiqlaydi. 1858- 1859-yildagi qoraqalpoqlarning xonga qarshi qo'zg'oloni davrida qoraqalpoq amaldorlarining xonga yozgan xatida o'n to'rt urug' navkarlari agar besh tilladan navkar — puli berilsa, undan keyin e'tiqod bilan xizmat qilamiz, deganlikning muhri ham bo'lgan. Xatdan ko'rinib turibdiki, qoraqalpoq navkarlari navkar pulini qo'zg'olon bostirilishidan oldin berishni talab qilganlar.

Qoraqalpoq navkarlariga Muhammad Aminxon davrida 1848-yili Marv turkmanlariga qarshi urush safaridan qaytishda berilgan navkar puli haqida Bayoniy: “u yerda ikki ming Qoraqalpoq navkarlariga o'n ming tilla va olti yuz Qo'ng'iroq navkariga uch ming tilla navkar puli berib, ularga vatanlariga qaytmoq ruxsatini berib dedilar: bahor vaqtida tayyor bo'lib kelinglar”, deb yozadi. Undan keyingi-yillari marv turkmanlariga qarshi yurishlarda esa yurishdan oldin navkar puli berilgan.

Shunday xollar yuz berar ediki, qoraqalpoq amaldorlari va navkarlari uchun xonlik tomonidan beriladigan navkar pulini qoraqalpoqlarni boshqarayotgan o'zbek amaldorlari bermasdan o'zlashtirib olar edilar. Chimboyda qoraqalpoqlarning hokimi bo'lib turgan Mahmud Yasovulboshining ana shunday navkar pulini bermay, oxiri Ollobergan Mahramdagi 1720 tillani bo'lib bergani haqida xonga qilgan shikoyat-arizasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Yana bir arizada qoraqalpoqlar hokimi (Mahmud Yasovulboshi) ni o'rnidan olib tashlab insof va diyonatli hokim tayinlab yuborishni so'rashadi.

Undan tashqari xonlik qoraqalpoq amaldor, navkarlariga urush paytlarida oziq-ovqat o'zi va oti tevasi yaralangani yoki o'lgani uchun pul yoki g'alla, “Yaxshi xizmati” (dushmani asir olgani, dushmanning kallasi, terisi, kesilgan qulog'ini olib kelgani va boshqalar) uchun pul, g'alla, to'n, pichoq, kamar va boshqa narsalar in'om qilgan. Qoraqalpoq amaldorlari va navkarlari xonlikning Markaziy tumanlari va Xivaga kelganda yoki borganida qunuq (qunuq puli) berilgan. Bunday berilgan pul va narsalar xonlikning xarajat daftarlari (12,63) bilan g'alla daromad buromadi yoziladigan daftarlarda aniq ko'rsatilgan.

Masalan, 1851-1852-yillari qoraqalpoq Ernazar Pahlovonga in'om uchun 200 botmon bug'doy, Rahmatulla yuzboshiga 40 botmon qozoyoqli Xitoy urug'idan Abdullaga 200 botmon qipchoq Rajab yuzboshiga 50 botmon bug'doy berilgan. O'sha-yillari Marv janglarida kenagas Utalish Yertiboy, Qurbonniyoz yuzboshi va Ernazar biy, mang'it Abdulfayz, Ernazar, Momon, Sohibnazar biy, Xo'jabergan, Xalmuhammad, Muhamadnazar kabi yuzboshi beshsari Xitoy Bekmuhammad, yuzboshi Urolboy xitoy Ernafas, chiruvchi xitoy Hasanboy yuzboshi, qangli Ermuhammad bahodir kabilarning o'lgan tevalari uchun har tevaga besh tillalik g'alla berilgan.

1856-yili qoraqalpoq qo'zg'oloni bostirilgandan so'ng qo'zg'olon boshlig'i Ernazar biyning bola-chaqasini olib kelgan qoraqalpoq navkarlarining qunuqi uchun olti tilla berilgan. O'sha yili qoraqalpoqlarning o'lgan va yaralangan otlari uchun bir yo'la 397 tilla berilgan. To'ra Murod qoraqalpoqqa yo'l oziq-ovqati uchun besh tilla berilgan va o'n tillaga bir ot olib berilgan. Yana qoraqalpoqning qunuqi uchun 51 tilla berilgan. Rajab qoraqalpoqqa ot puli uchun 40 tilla berilgan. Qoraqalpoq biyning qunuqi uchun birinchi marta 10, ikkinchi marta 30 tilla berilgan. O'sha yili qoraqalpoq navkarlari uchun, 2000 tilla navkar puli yuborilgan.

1870-yili qoraqalpoq Orzu otaliqqa ellik tilla berilgan. Qoraqalpoq Nurniyoz biy, Safar biy, Bosim biy, Do'stnazar biy, Utab biyga shoyi to'n in'om qilingan. Mahmud Yasovulboshi bilan Xivaga kelgan besh qoraqalpoqqa besh shoyi to'n berilgan.

1871-yili Qobiljan beklarbegi, Xudoynazar beklarbegilarga bittadan kamarli turma chakmon in'om qilingan. Uning har biri 7 tilla turgan.

Yana o'sha-yili Qobil beklarbegining xalifa puli uchun 60 tilla berilgan. Qobil beklarbegiga 20 kunga 40 tilla qunuq puli berilgan. Qoraqalpoq tarixiga oid hujjatlarning qaysi birini olmang, u xoh soliq, xoh zakot yoki feodal majburiyatlar to'g'risida bo'lmasin, ular qoraqalpoq qabila urug'larini asos qilgan holda yozilgan. Shuning uchun ular qoraqalpoq xalqining etnik tarkibini o'rganishda etnik tarkibidagi qabila urug'lar va xo'jalik hayoti haqidagi ma'lumotlar esa u xalqning etnonim, etnogenezini o'rganishda eng muhim manba bo'lib hisoblanadi. P.P.Ivanov, S.P.Tolstov, T.A.Jdanko, B.V.Andrianov, L.S.Tolstova, R.Kosbergenovlar o'z ishlarida yoritib o'tilgan qoraqalpoq nomining kelib chiqishi, etnik tarkibini, qabila urug'lariga bo'linishi, xo'jalik soni va tumanlarga joylashuvi kabi masalalari haqidagi ma'lumotlarni yanada to'ldiradi va yangi materiallar bilan boyitadi. O'rta hisob bilan bir xo'jalikda olti nafar kishi bor deb hisoblanadi.

Demak, hujjatlardan ma'lum bo'lishicha 1873-yilgacha qoraqalpoq xalqining etnik sostavi qabila urug'lari, urug' shahobcha — teralari, ularning xo'jalik va jon soni, shular hisobidan xonlikka beradigan navkar (otlik Askar) lari ana shulardan iborat bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андрианов Б. В. Этническая территория каракалпаков в Северном Хорезме//Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. 1958. – С. 58.

2. Брегел Ю.Е. Документы архива хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. – М.,1967. – С. 62-69.

3. Жалилов О. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан. – Т., 1985. — Б. 124.

4. Жданко Т.А., Камалов С.К. Этнография Каракалпаков. XIX–начало XX века (Материалы и Исследования) – Т.: ЎзССР Фан. 1980. – С. 158.

5. Ёўлдошев М.Ю. Материалы по истории каракалпаков// Общественные науки в Ўзбекистана. 1965, — С. 63-68.

6.Йўлдошев М.Ю. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши. – Т., 1959. – Б. 120-129.